

UMUMIY O'RTA TA'LIMDA „ALPOMISH“ DOSTONINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISH

H.K.Allambergenov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, doston janri o'rgatish, mediata'lim resursi, «Alpomish» dostonida qo'llangan raqamlar.

Ключевые слова: общее среднее образование, обучение эпическому жанру, медиаобразовательный ресурс, цифры, использованные в эпосе «Алпомыш».

Key words: secondary education, teaching the epic genre, media education resource, numbers used in the epic poem “Alpomish”.

Xalq og'zaki ijodi namunalari insoniyat badiiy tafakkurining asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan buyuk ma'naviy-ma'rifiy xazinasi. Jahon adabiy ta'limida o'quvchilarni xalqning o'tmish yodgorliklari bilan tanishtirish, ularda xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqish va hurmat hissini tarbiyalash, ma'naviy yetuk insonlar sifatida kamolga yetkazish yurtning kelajak taraqqiyotini belgilaydigan dolzarb masalalardan sanaladi. Shu ma'noda, umumiy o'rta talim tizimida xalq dostonlarini o'rgatish, uning ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlarini aniqlash, asar zamiridagi sharqona odob-axloq qoidalari va ezgu insoniy fazilatlarni tushuntirish kabi masalalar bugungi globalashuv davrida har qachongidan ham dolzarbdir.

Bugungi kunda yurtimizda xalq dostonchiligi rivojiga, shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonida mazkur janr sir-sinoatlarini o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bir qancha samarali ishlar olib borilayotganligi quvonarli holat, albatta. Ammo adabiyot darslarida xalq dostonlarini o'qitish borasida pedagog-tadqiqotchilarimiz tomonidan olib borilishi lozim bo'lgan ishlar hali anchagina. Negaki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida doston janrini o'rgatish, uning zamiridagi asrlar osha jilolanib, og'izdan og'izga o'tib kelgan purhikmat iboralar-u insoniy fazilatlarning ajoyib qirralarini o'quvchi qalbiga yetkazib berish ustoz-pedagoglardan beqiyos mahorat talab qiladi. Chunki «biz ma'naviyat to'g'risida har qancha qayg'urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta'sirida hamda bolalarimiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan, bizning qilayotgan barcha urinishlarimiz o'z samarasini bermaydi» [2:9]. Zero, doston janri to'lig'icha tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan asardir.

Xalq dostonlarini o'rgatishga bag'ishlangan dars mashg'ulotlari samaradorligini ta'minlovchi muhim bir jihat uning ko'rgazmaliligidir. Doston voqealariga bag'ishlab chizilgan turli rasmlar hamda video materiallar murojaat etilayotgan matnning o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Prof. B.To'xliyevning to'g'ri ta'kidlaganidek, «qaysi bir asarni o'rganishda sharh va izohlarning o'rni kattaroq bo'lishi, boshqa bir asarni o'rganishdan oldin ifodali o'qish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Qay holatlarda biografik metod o'rinni bo'lsa, qaysi o'rinlarda estetik tahlilning o'rnini bosadigan biror usul bo'lmasligi tabiiydir» [6:9]. Shu ma'noda, xalq dostonlarini o'rgatishda ko'rgazmalilik usuli bayon etilgan nazariy fikrlarni asoslashda, qahramonlar ruhiy holatini tahlillashda nihoyatda muhimdir. Zero, dostonning baxshilarimiz ijrosida yozib olingan video materiallari – media resurslarini qo'yib berish ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi. O'quvchi ma'naviy olami xalqning o'tmishi, qadimiy urf-odatlar, tarixiy, madaniy merosi bilan yanada yaqinroq rishta bog'laydi. Chunki «doston tarix emas, ammo tarix dostonidan sirtida bo'lmas. Doston tinglagan kishi «bu voqealar qachon o'tgan ekan», deb o'ylashi tabiiy. «O'tganni baxshi-shoir qanday aytgan?» Ayniqsa yozma dalilga tayanib qolgan bugunning odamiga biror bir fikrni hujjatsiz ishonirish qiyin...» [5:72].

Darhaqiqat, mediaolamga nihoyatda yaqin bo'lgan bugungi avlod dars mashg'ulotlari davomida faqatgina so'z orqali tushuntirishlarga, adabiy-badiiy tahlillarga qoniqishi qiyin. Shu bois ham o'rganilayotgan doston mavzusiga mos

bo'lgan baxshilar ijrosidagi video materiallarning eng avj pardali lavhalarini, tahlil talab o'rinlarini, milliy-umumbashariy qadriyatlarga yo'g'rilgan qisqa parchalarini qo'yib berish faqat ijobiy natija uchun xizmat qiladi. Ayrim o'quvchilarda esa bu holat sohaga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga bevosita sabab bo'ladi. Zero, «baxshi ijro davomida dostonidagi har bir tasvirga mos so'z va kuy topib avjga chiqi boradi, o'zlarining ta'birlari bilan aytganda, «qaynaydi». O'rni-o'rni bilan eshituvchilarga murojaat etib, ularning diqqatini tortib turadi, o'z navbatida auditoriya kayfiyatini ham hisobga ola boradi. Avj nuqtalarga yetganda, baxshining barcha gavda harakatlari, boshini sarak-sarak qilishi, do'mbiraning bir muvozanatda borib-kelishi kuy va so'zga qo'shilib yaxlit ritmik holat yuzaga keltiradiki, go'yo har bir misra baxshi qalbidan otilib chiqqanday bo'ladi» [4:20]. Shuning uchun ham mashg'ulotlar mobaynida dostonidan parchalarnigina qo'yib berish va to'liq qismini uyda tomosha qilishni tavsiya etish o'qituvchiga mavzu mohiyatini yoritishda, shuningdek, yoshlarda xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatiga aylangan folklor namunalariga bo'lgan hurmat-ehtirom hissining kamol topishiga bevosita yordam beradi. Zotan, Sh.M.Mirziyoyevning ham ta'kidlaganlaridek: «Dostonchilik va baxshichilik – milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim» [1].

Darvoqe, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari dastur va darsliklariga jami 4 ta: «Kuntug'mish», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonlari kiritilgan bo'lib, ularda berilgan parchalar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda, folklor namunalariga bo'lgan muhabbat tuyg'usining oshishida, ma'nan va aqlan tarbiyalanishida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Dostonlarni o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda quyidagi masalalarga diqqat qilish, o'quvchilar bilan tahlillash nazarda tutilgan:

Darslar tartibi	Mavzular	Soat
8-sinfda		
2-dars	«Kuntug'mish» dostoni. Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o'rni. Ularning turlari	1
3-4-dars	«Kuntug'mish» – ishqi-y-sarguzasht doston	2
5-dars	Dostonidagi boshqa obrazlar tasviri	1
6-7-dars	1-nazorat ishi. Insho va tahlil. «Kuntug'mish va Xolbeka timsollariga tavsif».	2
9-sinfda		
2-6-dars	«Alpomish» dostoni. Nazariy ma'lumot: doston turlari	5
7-8-dars	1-nazorat ishi. Insho va tahlil. «Dostonidan olgan taassurotlarim».	2
10-sinfda		
3-dars	O'zbek xalq dostonlari. «Go'ro'g'li» dostonlari tarixi va variantlari	1
4-5-dars	«Go'ro'g'li» dostoni matni bilan ishlash	2
6-dars	«Go'ro'g'li» dostonining Xorazm varianti	1

7-dars	«Go‘ro‘g‘li» solishtirish dostoni variantlarini	1
8-dars	«Go‘ro‘g‘li» dostoni misolida dostonlarga xos xususiyatlarni umumlashtirish	1
14-15-dars	Antik adabiyot va o‘zbek adabiyoti: «Odisseya» va «Alpomish»	2
11-sinfda		
2-3-dars	«Go‘ro‘g‘li tug‘ilishi» dostoni. «Go‘ro‘g‘li tug‘ilishi» dostoni sujetining o‘ziga xosligi	2
4-dars	Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi	1
5-dars	Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati [8]	1

Shu o‘rinda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘rgatishda ilmiy-ma‘rifiy mediata‘lim resursiga ehtiyoj mavjudligini ta‘kidlash lozim. Biz **loyiha sifatida taqdim etayotgan** hamda folklor janrlari kesimida ishlanadigan ushbu mahsulot o‘z tarkibiga maktab darsliklarida berilgan xalq maqollari va topishmoqlari, qo‘shiqlar va dostonlar haqidagi quyidagi materiallarni qamrab olishi lozim:

- 1) Maktab darsliklarida berilgan og‘zaki ijod namunalarining to‘liq kitob holidagi nusxalarini (pdf);
- 2) Badiiy parchalarning audio varianlarini;
- 3) Xalq baxshilari ijrosidagi video fayllarni;
- 4) Berilgan mavzular asosida bajarilgan asosiy ilmiy manbalar: monografiyalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, risolalar, dissertatsiya hamda avtoreferatlarning elektron nusxalarini;
- 5) zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida xalq dostonlarini o‘rgatish bo‘yicha ishlangan interfaol metod hamda usullar:



Umuman, elektron portal shaklida ishlanishi mumkin bo‘lgan ushbu mahsulot nafaqat maktab o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun muhim media‘lim resursiga aylanadi, balki o‘zbek folklorshunosligining yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shadigan ulkan hisssasi sifatida ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, axborot-resurs markazlari va muzeylar uchun muhim elektron axborot manbasi vazifasini bajaradi.

Umumiy o‘rta ta‘limda xalq dostonlarini o‘rgatishda har bir detal muhim ahamiyat kasb etishini e‘tibordan chetda

qoldirmaslik zarur. Zotan, xalqning asrlar mobaynida takomillashgan ma‘naviy olami, badiiy tafakkur mahsuli ayni folklorlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, tahlilga jalb etilayotgan parcha matnidagi raqamlar ham o‘zida turfa ramz-u qarashlarni ifoda etadi. «Chunki ramzlarda milliy tafakkurga xos, millatning ijod, tasavvur, fantastik salohiyati yotadiki, bu ramzlarni o‘rganish xalq ma‘naviy tarixini, ruhiy dunyosini o‘rganishga olib keladi va bunday tadqiqotlar shaxsni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi» [7:116].

Bunda o‘qituvchi mavzuni tushuntirib bo‘lgach, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga dostondagi raqamlar bilan bog‘liq jadvalni taqdim etishi mumkin. O‘quvchilar jadvalni o‘qituvchi ko‘rsatmalari asosida to‘ldirib boradilar. Agar jadvalda berilgan raqam bilan bog‘liq bir necha voqealar bo‘lsa, ularni ham yozishlari kerak bo‘ladi. Tarqatma material shaklida ishlangan jadvallar bitta katta plakat shaklida taxtaga ilinadi va sinf bilan tahlil qilishda foydalaniladi. Hamkorlikda ishlashga asoslangan guruhlariga esa A-4 qog‘ozlarga bosilgan kichik jadvallar tarqatiladi:

«Raqamlar so‘zlaganda» usuli, 1-plakat:

O‘n	Besh	O‘ttiz to‘qqiz	Yetti	O‘n to‘rt	Qirq
1. Barchin Qo‘ng‘irot eliga o‘n yigiti chopar qilib yuboradi;	...				
2. O‘n choparga o‘n ot saylab olinadi.					

2-plakat:

Yigirma	Oltmish	Besh yuz	O‘n besh	Olti	To‘qson
Barchinning choparlari Qo‘ng‘irot elida yigirma kun yotadilar	...				
...					

3- palakat:

O‘n olti	Bir	To‘rt	To‘qson olti	Oltmish uch	Sakson
O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli	..				
...	.				

«Raqamlar so‘zlaganda» metodining samarali tomoni shundaki, o‘quvchilar asar voqealarini boshdan oyoq yana bir marta takrorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bu raqamlar orasida uzoq o‘tmishdan kelayotgan urf-odatlar, an‘analar bilan bog‘liq timsollarning ham yashiringanligi doston matniga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga, sinchkovlik bilan munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘liq bo‘lgan an‘anaviy motivlarni shu tariqa tahlilga tortishi, misollar bilan asoslab borishi obrazlar harakatlari hamda voqealar rivojining o‘quvchilar xotirasida mustahkam saqlanib qolishiga yordam beradi. Chunki «qahramonlarni hayotiy voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o‘quvchidan bu sezimlarni ilg‘ab olish

talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zahiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi» [3:127].

Biz quyida umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi adabiyot fani o'qituvchilari uchun yordamchi material bo'lishi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ayrim raqamlar bilan bog'liq ma'lumotlarni ham taqdim etmoqdamiz:

«Alpomish» dostonidagi raqamlar bilan bogliq voqea-hodisalar

Bir	– Shohimardon pining bir oyog'i bilan turib farzand so'ragani aytiladi; – Boybo'ri bir o'g'li, bir qizi bo'ladi; – Boysarining bir qizi bo'ladi; – Boybo'ri zakotga bir chichqoq uloq so'raydi; – Qalmoqqa borgan birinchi kechasida Chiltanlar Barchin bilan Alpomishning ruhi-ni uchrashtiradi.
Ikki	– Ko'sa sinchi Boychiborni zo'r ot degani uchun Ko'kaldosh uning ikki ko'zini o'yib oladi.
To'rt	– Barchin unga uylanmoqchi bo'lgan polvonlarga to'rt shart qo'yadi; – Barchinning tushida oyning girdini to'rtta yulduz oladi.
Besh	– Alpomishning kiftida Shohimardon pining besh panjasining o'rni bililib qoladi.
Olti	– Barchin Ko'kaldoshdan olti oyga muhlat so'raydi; – Alpomishga yozgan maktubida Barchin olti oychalik yo'lga kelganini aytdi; – Qo'shquloq ta'rifida murti ichidagi sichqonni mushukning olti oyda tutgani aytiladi.
Yetti	– Hakimbek yetti yoshida Alpomish nomini oladi; – Boysari Boybo'riining zakot so'ratib yuborgan mahramlaridan yettovining quloq-burnini kesib o'zlariga yegizdiradi; – Surxayning yetti o'g'li borligi aytiladi; – Alpomish bilan Qorajon ko'rishganda, Alpomish siqinquirab yuboradi va Qorajonning yetti qobirg'asi sinadi.
O'n	– Barchin Qo'ng'iro't eliga o'n yigitni chopar qilib yuboradi, o'n choparga o'n ot saylab olinadi.
O'n ikki	– Alpomishga o'n ikki imom jilovdorlik qiladi.
O'n to'rt	– Hakimbek Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon brinchdan bo'lgan parli yoyni ko'tarib, Alpomish nomini oladi; – Boybo'ri zakot uchun o'n to'rt mahramini yuboradi; – Dostonda Barchin o'n to'rt yoshda deb ta'riflanadi; o'zbeklarda qiz o'n to'rtga chiqqanda o'z ixtiyori o'zida qoladigan udum aytiladi;

	– Dostonda Hakimbek ham o'n to'rt yoshga kirgan edi.
O'n besh	– Barchinning har yag'rini o'n besh qarich kelar edi
O'n olti	– O'n olti urug' Qo'ng'iro't eli ta'riflanadi.
Yigirma	– Barchinning choparlari Qo'ng'iro't elida yigirma kun yotadi.
O'ttiz to'qqiz	– Boybo'ri bilan Boysari Shohimardon pining ravzasida o'ttiz to'qqiz kun tunagach ravzadan ovoz keladi.
Qirq	– Qirq kun Shohimardon pining ravzasida tunagan odamning mureddiga yetishi aytiladi; – Boysari bilan Boybo'ri ravzada qirq kun tunaydi; – Boysari bilan Boybo'ri farzandli bo'lishgach, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qiladi; – Qaldirg'ochoyimning qirq kanizi bor edi; – Alpomishga qirq chiltan homiylik qiladi; – Boboxonning orasi qirq kunlik yo'l edi; – Alpomish va Barchinning to'yidan keyin qirq kungacha maslahat qiladilar.
Oltmish	– Barchinning sepi oltmish norga yuklanadi.
Oltmish uch	– Boychiborning ayil tortuvi oltmish uch qarich edi.
Sakson	– Boysari bilan Boybo'ri chupronto'yga sakson tilladan tashlaydilar.
To'qson	– To'qson alpning boshlig'i Rustami doston deyiladi; – Boysari va Boybo'riining to'qson to'qaydan yilqisi bor edi; – to'qson dovon tog' tasviri mavjud; – yetti qalmoq to'qson botmon temirdan sovut kiygan, yetti qalmoq to'qson shirbozning etini yeydi deyiladi; – Barchinning choparlari to'qson kecha-kunduzda Qo'ng'iro't eliga boradilar; – dostonda to'qson molning terisidan bo'lgan kovush tasvirlanadi.
To'qson olti	– Boychiborning sag'risining ustidan qulog'ining o'rtasigachayin to'qson olti qarich edi.
Besh yuz	– yetti alpning har biri podshodan besh yuz so'm moyana oladi; – poygada jami besh yuz ot qatnashadi; – Ko'kaldosh taqimida besh yuz botmon kaltagi bor deyiladi; – Ko'kaldoshning otgan o'qi besh yuz qadamga yetadi; qalmoq polvonlarning biriga berilgan ta'rifda beliga besh yuz quloqch arqon yetmaydi deb ta'riflanadi.

Xullas, umumiy o'rta ta'limda doston janrini zamonaviy, raqamli texnologiyalar asosida o'rgatish o'quvchilarda ahdga vafo, so'zga sodiqlik, do'stga ishonch singari azaliy qadriyatlarga muhabbat tuyg'usini tobora rivojlantiradi. Shuningdek, boshiga tashvish tushgan insonning uni sabr-qanoat bilan yengishi lozimligi, insonlarga qo'ldan kelguniga qadar yordam berish va bu yaxshilikning, albatta, bir kun kelib o'ziga ham yaxshilik bo'lib qaytishini dalillaydi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Истикболли лойиҳалар халқимиз фаровонлигига хизмат қилмоқда. / “Халқ сўзи”. – Тошкент: 2018. 23 январь.
2. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. 9-b.
3. Ёўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. 127-б.
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: «Фан», 1979. 20-б.
5. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2012, 72-б.
6. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006, 9-б.
7. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: “Насаф”, 1999, 116-б.
8. <https://bellashuv.uz/ustozlarga/hujjatlar/1654-2022-2023-oquv-yili-uchun-adabiyot-fanidan-ish-reja-word-docx-excel-xlsx-variantlari.html#gsc.tab=0>.

REZYUME. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida doston janrini raqamli texnologiyalar asosida o'rgatish masalalari tahlillanadi hamda bugungi kunda mazkur janr namunalari o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ilmiy-ma'rifiy mediata'lim resursi loyihasi taklif etiladi, «Alpomish» dostonini raqamlar bilan bog'liq hodisalar asosida o'rgatish usuli tavsiflanadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются вопросы преподавания эпического жанра на основе цифровых технологий в общеобразовательных школах, и предлагается проект научно-просветительского медиаобразовательного ресурса, который на сегодняшний день может быть использован в преподавании образцов данного жанра, описаны способы преподавания эпоса «Алпомыш» на основе явлений, связанных с цифрами.

SUMMARY. The issues of teaching the epic genre based on digital technologies in secondary schools are analysed, scientific and educational media education resource project in the process of teaching the so called genre is proposed and teaching the events in the epic poem *Alpomish* with numbers is classified in this article.

НОВАЯ ПАРАДИГМА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ – УСПЕХ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Г.Ж.Алламуратова – кандидат филологических наук, доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажсинияза

А.Ж.Алламуратова – кандидат филологических наук, доцент

Частный образовательный ВУЗ Profi University, г. Ташкент

Таянч сўзлар: янги парадигмалар, танкидий фикрлаш, таълим жараёни, самарадорлик, кўникмалар, инновациялар, рақамли саводхонлик.

Ключевые слова: новые парадигмы, критическое мышление, образовательный процесс, эффективность, навыки, инновации, цифровая грамотность.

Key words: new paradigms, critical thinking, educational process, efficiency, skills, innovation, digital literacy.

Современный мир меняется с быстротой. Технологические, социальные и экономические изменения требуют новых навыков и знаний у студентов. Поиск новых парадигм помогает адаптироваться к этим изменениям и подготавливать студентов к будущим вызовам.

В настоящее время учащиеся соприкасаются с разными стилями обучения, зависящие от их интересов и способностей. Традиционные методы обучения утрачивают эффективность. Новые парадигмы позволяют адаптировать образовательный процесс к индивидуальным потребностям каждого ученика.

Старые методы обучения часто ограничиваются передачей информации и запоминанием фактов. Новые парадигмы образования акцентируют внимание на развитии критического мышления, творческого мышления и навыков решения проблем. Это помогает студентам развивать навыки, которые им будут полезны в реальной жизни.

Поиск новых парадигм в образовании способствует развитию инноваций в этой области. Новые идеи и подходы могут привести к улучшению результатов обучения, более эффективному использованию ресурсов и созданию более интересной и вовлекающей среды для студентов.

Будущее требует новых навыков и знаний. Поиск новых парадигм помогает подготовить студентов к будущим профессиям и вызовам. Это может включать в себя развитие навыков цифровой грамотности, коммуникации, сотрудничества и критического мышления.

«Любой язык способствует развитию умственных, творческих знаний, усиливает мышление и воображение. Система преподавания русского языка является одним из сложных этапов в процессе получения образования. Возникают новые подходы к определению цели и средств обучения языку. Для качественного преподавания используют как педагогические, так и информационные технологии» [1:66].

Современная парадигма в разработке и выборе учебных материалов для преподавания русского языка включает в себя следующие аспекты:

1. Интегративный подход: Учебные материалы должны быть разнообразными и включать в себя различные типы заданий и упражнений, которые позволяют студентам развивать все аспекты языка - грамматику, лексику, аудирование, чтение, письмо и говорение.

2. Аутентичность: Материалы должны быть аутентичными и отражать реальные ситуации, в которых студенты могут использовать русский язык. Это могут быть тексты из русскоязычных источников,

аудиозаписи носителей языка, видеоматериалы с русскими субтитрами и т.д.

3. Контекстуализация: Учебные материалы должны предоставлять студентам контекст, в котором они могут использовать новые языковые навыки. Например, тексты могут содержать информацию о культуре, истории или повседневной жизни России, чтобы помочь студентам лучше понять и использовать язык.

4. Интерактивность: Материалы должны быть интерактивными и способствовать активному взаимодействию студентов. Это может быть выполнение заданий в парах или группах, обсуждение тем, ролевые игры и т.д.

5. Поддержка самостоятельного обучения: Учебные материалы должны предоставлять студентам возможность самостоятельно изучать язык и проверять свои знания. Это может быть через использование интерактивных онлайн-платформ, приложений для мобильных устройств или доступ к дополнительным упражнениям и материалам.

Новая парадигма в разработке и выборе учебных материалов также учитывает современные технологии и возможности онлайн-обучения. Все больше преподавателей используют цифровые ресурсы, вебинары, видеоконференции и другие средства для обучения русскому языку на расстоянии. Это позволяет студентам изучать язык в удобное для них время и обеспечивает большую гибкость в обучении.

Интегративный подход в обучении русскому языку предполагает использование различных методов и техник, которые объединяют разные аспекты языка (грамматику, лексику, произношение и т. д.) и интегрируют их в единый учебный процесс.

Приведём ряд научных публикаций, в которых рассматриваются проблемы интегративного подхода в процессе обучения: Алламуратова Г. Ж., Алламуратова А.Ж. Русский язык: особенности изучения в нерусской аудитории; Безруких Е.Г. Интегрированное обучение как средство организации современного учебного процесса; Бочкова Н.В. Интеграция в обучении английскому языку в средней школе; Войнова Ж.Е., Федорова Е.Н. Интеграция психолого-педагогических дисциплин и методик обучения как проблема педагогического образования; Орлов А.А. Интегративные подходы в современном образовании и проблемы подготовки учителя; Ужан О.Ю. Интегрированное обучение как следствие модернизации образования.

«Эффективность осуществления интегративных связей на уроках во многом зависит не только от уровня профессиональной компетентности учителей, но и от того, насколько глубоко они убеждены в их